

Journal of
**Natural
science**

**No5
2021**

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

JIZZAX VILOYATI AHOILI KO‘PAYISHINING DAVRIY DINAMIKASI.

G‘apporov Azimbek Nazarovich

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası kata o‘qituvchisi

Oqanov Quvondiq

Geografiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Аннотация. В статье определяется территориальные различия демографического развития в территории Джизакской области после приобретения независимости. Анализируется естественный прирост и разницы в половом составе населения области по периодам конца XX ого и начале XXI ого века.

Ключевые слова: демография, рост рождаемости и смерти, естественный прирост, половой состав населения.

Mustaqillik yillarida Jizzax viloyati hududida iqtisodiy ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan birga demografik jihatdan ham turli o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar avvalo xo‘jalik tizimining yangicha tashkil etilishi, aholining hududiy joylashuvi va mehnat resurklariga bo‘lgan munosabatning yangicha yondashuvda shakllanishi bilan bog‘liq. Xususan, aholi sonining o‘sishi, hududiy joylashuvi, ichki va tashqi migratsiya hodisalari, tug‘ilish va o‘lim statistikasi, yosh va jins tarkibining nisbatlari kabi ko‘rsatkichlar birmuncha o‘ziga xoslikni tashkil etadi.

Ma‘lumki, mustaqillik yillaridagi demografik rivojlanish, mustaqillikkacha bo‘lgan davrdan birmuncha farq qiladi. Bu tafovutlar hududiy xususiyatlarga ham ega. Xususan, tumanlar bo‘yicha demografik tahlil qilinganda bunday holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi navbatda viloyat aholisining mustaqillik yillaridagi miqdoriy o‘shish dinamikasiga umumiy baho berish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillarida viloyat aholisi izchil ravishda miqdoriy o‘shib bordi. 21-asr boshida bu raqam 1 milliondan oshdi. Mustaqillikning birinchi 10 yilligida aholi yiliga o‘rtacha 17,2 ming kishidan ko‘paygan bo‘lsa, bu raqam yillar kesimida ancha notekis. Masalan, 1991 yildan 1992 yilga aholi soni 25 mingtaga ko‘paygan bo‘lsa 1999 yildan 2000 yilga aholi 16 ming kishiga ko‘paygan. Bu holat ko‘payish jadalligining qanday omillarga bog‘liq ro‘y berganligini tahlil qilishga zarurat uyg‘otadi. Keyingi 10 yillikda ko‘payish jadalligi yanada susaygan holatlarni ko‘rish mumkin. Mustaqillikning ikkinchi 10 yilligida aholi ko‘payishi o‘rtacha 10,4 ming kishini tashkil etadi. Ta‘kidlash joizki, ushbu yillar davomida aholi miqdorining o‘shib borishi bo‘yicha statistik hisob kitoblarda birmuncha chalkashliklar mavjud. Turli manbalarda aholi sonining miqdori turlicha ko‘rsatilgan holatlar uchraydi. Binobarin, bu ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda asosan respublika statistika qo‘mitasi ma‘lumotlaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

Ushbu yillar davomida aholi ko‘payishi yiliga o‘rtacha 15 ming kishini tashkil etadi va bu so‘nggi yillarda 21 ming kishiga yetgan. Aytish mumkinki, viloyatda aholi sonining ko‘payish jadalligi ortmoqda.


Aholi sonining ko‘payishi asosan aholining tabiiy va mexanik harakati bilan bog‘liq. Binobarin, keyingi yillaridagi tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish va migratsiya jarayonlarini tadqiq qilish bilan viloyat aholisining tabiiy harakati haqida xulosa chiqarish mumkin. Shuningdek, bu jarayonlarni davriy ravishda qiyosiy tahlil qilinish maqsadga muvofiq, zero demorafik jarayonlar doimiy o‘zgarish xususiyatiga egadir.

Mustaqillikning birinchi 10 yiligidagi tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lgan. Bu holat sobiq Ittifoq davrining so‘nggi yillarida respublika miqyosida ko‘tarilgan demografik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkichlarning birmuncha pasayishi kuzatiladi. Ta‘kidlash joizki O‘rta Osiyo xalqlariga xos ko‘p farzandlilik tendensiyasi tobora susayib bormoqda. Shu bilan birga onalar va bolalar salomatligini asrash siyosati natijasida mamalakatimiz hududlarida aholi sonining o‘shishi kuzatilmog‘da. Bu jarayon Jizzax viloyatida tug‘ilish va o‘lim jarayonlari nisbatida aholining tabiiy o‘shishida ko‘rinadigan raqamlarda ham o‘z aksini topgan.

Jizzax viloyati aholisi tabiiy harakatining davriy o‘zgarishlari.

Yillar	Mavjud aholi soni (kishi)	Tug‘ilish (kishi)	%	O‘lim (kishi)	%	Tabiiy ko‘payish (kishi)	%
1991	824300	31278	37,9	4177	5,0	27101	32,9
1995	911100	30100	33,0	5034	5,5	25066	27,5
2000	996900	24049	24,1	4308	4,3	19741	19,8
2005	1056800	24157	22,9	4459	4,2	19698	18,7
2010	1116800	25942	23,2	4440	3,9	21502	19,3
2015	1250100	31887	25,5	5348	4,3	26539	21,2
2020	1382100	38118	27,6	6021	4,3	34097	24,6

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, davrlar oralig‘ida aholi soni ko‘payib borgani holda demografik jarayonlarda pasayish kuzatiladi. Bunday holatda aholi sonining ortib borishi o‘lim ko‘rsatkichlarinng pasayishi hisobiga yuz beradi. Bu jarayonlarning eng past nuqtasi 2005 yilga to‘g‘ri keladi undan keyingi yillarda ko‘rsatkichlar izchil ortib boradi. So‘nggi yillarda viloyat aholisining miqdoriy o‘shishi tabiiy jarayonlarning ham jadal o‘shishiga ta‘sir ko‘rsatgan.




Jizzax viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Keyingi 30 yillik o'zgarishlar trend chizig'ining ko'rsatishicha, jaarayonlar intensivligi hali pasayish holatida, lekin o'zgaruvchanlik nuqtai nazaridan ko'rsatkichlar yuqorilayotgani kuzatilmoqda. Tabiiy o'sish trendidagi yuqorilash nuqtasining qaysi yildan boshlanishini keyingi yillar bo'yicha tahlillarda ko'rish mumkin bo'ladi. Bunda, tabiiy ko'payishning 27,5%o dan ortiq bo'lishi o'sish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Demografik rivojlanishda aholining jins tarkibi ham alohida ahamiyatga ega. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar nisbati deyarli teng ravishda bo'lib, jinsiy tarkibdagi miqdoriy tafovut oxirgi yillarga kelib erkaklar sonining nisbatan ortiqligi bilan ifodalanadi.

Jinsiy tarkibda ayollar miqdorining doimiy kamligi turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda tug'ilishdagi jinsiy taqovut bo'lsa, ikkinchi navbatda o'limdagi jinsiy nisbatga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Ammo o'rtacha umr davomiyligi hamisha ayollarda yuqori bo'lib kelgan. Binobarin, tug'ilish va ayollar salomatligi masalasiga e'tibor qaratish joizdir. Mustaqillik yillarida ayollar salomatligiga jiddiy e'tibor qaratildi. Onalar va bolalarning sog'lomligini ta'minlovchi bir qator keng miqyosdagi tadbirlar o'tkazildi, qonunlar qabul qilindi. Bunga misol qilib onalar va bolalar salomatligini nazorat qiluvchi tashkilot va muassasalar faoliyatini ko'rsatish mumkin.



Xulosa sifatida aytish mumkinki, viloyat aholisining soni muntazam ko‘payib bormoqda, bunda tabiiy harakat asosiy o‘rin tutadi. Binobarin, viloyat hududida aholining tug‘ilish va o‘lim darajasi, jinsiy tarkibdagi o‘zgarishlar kabi jihatlarni tahlil etish, ish o‘rinlari va aholining ish bilan ta‘minlanishini tashkil etish dolzarb ekanligi e‘tirof etilishi va zaruriy choralar ko‘rilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ata-Mirzaev O. Tukliev N. “Uzbekistan: Nature. Population. Economy” Tashkent. 2010. Application Information.
2. Gapparov, A. N. (2020). Characteristics of population development in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 572-578.
3. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Gapparov, A. N. (2020). THE NEED FOR AND THE IMPORTANCE OF THE REGISTRATION OF THE POPULATION. In *ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 168-170).
5. Гаппаров, А. (2021). ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ДЕМОГРАФИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА ДЖИЗАК. *Журнал естественных наук*, 1(2).

6. Холмирзаев, Ж. Э., & Усмонов, Ю. К. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ СЕТЕЙ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 200-203).
7. Абдуллаев, И. Х., & Каримов, И. Э. (2020). ЖИЗЗАХ СУВ ОМБОРИ ТАЪСИРИ ДОИРАСИДА ТАБИЙ-АНТРОПОГЕН ЛАНДШАФТЛАРНИ РАЙОНЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 1(2).
8. Usmanov, M. (2020). Ўзбекистон чорвачилик агросаноат комплекси: унинг ривожланиш истиқболлари ва муаммолари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-5.
9. Toshboyev, Z. (2021). МИРЗАЧЎЛ ВОҲА ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ: МИРЗАЧЎЛ ВОҲА ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ. *Журнал инновации в начальном образовании*, (Архив№ 1).
10. Hakimov, K. M., & Holmirzayev, J. (2021). JIZZAX VILOYATI SUV RESURSLARINING HUDUDIY JOYLASHUVI HAQIDA. *Журнал естественных наук*, 1(5).
11. Amonovna, A. O., & Jo'rabek, Q. (2021). 5-SINF TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLARINING O'RNI VA ANAMUATI. *Журнал естественных наук*, 1(5).
12. Holmirzayev, J., & Qosimov, N. (2021). Jizzax viloyati ichki suvglariga antropogen omillarning ta'siri. *Журнал естественных наук*, 1(2).
13. Haydarova S. etal. MIRZACHOL O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.